



“Humans’ga ulanish evaziga 22 222 Keshbek” Aksiyasi Qoidalari

2022 y. 22-iyun

“Humans’ga ulanish evaziga 22 222 Keshbek” Aksiyasi (keyinchalik – Aksiya deb yuritiladi) “Humans” mas’uliyati cheklangan Jamiyati manzili: 100047, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mahtumquli ko‘chasi. 2-B-uy, INN 306624856 (Provayder) tomonidan o‘tkazilayotgan bo‘lib, Provayder tomonidan taqdim etilayotgan aloqa xizmatlariga qiziqishni oshirishga, Provayder bilan aloqa xizmatlari uchun shartnomalar tuzishga qaratilgan.

1. Aksiya to‘g‘risida ma’lumot

- 1.1. Mazkur Qoidalar matnida katta harflar bilan yoziladigan so‘zlar atamalardir. Atamalarning ta’rifi agar mazkur qoidalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, provayder tomonidan tasdiqlangan HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlarida, Provayder tomonidan HUMANS sodiqlik dasturi Qoidalarida tasdiqlangan va www.humans.uz saytida, shuningdek, tariflarning tavsiflarida keltirilgan.
- 1.2. Aksiya ishtirokchilari – mazkur Qoidalarning 2 bo‘limida qayd etilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslardir.
- 1.3. Aksiya o‘tkaziladigan hudud: O‘zbekiston Respublikasi.
- 1.4. Aksiya o‘tkaziladigan davr: 2022 yil 22 iyun dan 2022 yil 28 iyun gacha.

2. Aksiya bayoni

- 2.1. Aksiya o‘tkazilish davri va Aksiya Qoidalarining 2.2-bandida ko‘rsatilgan shartlarga amal qilinganda, Aksiya Ishtirokchisi o‘z Keshbek hisobiga 22 222 (yigirma ikki ming ikki yuz yigirma ikki) Keshbek oladi.
- 2.2. Aksiya shartlari:

Aksiya o‘tkazilayotgan davrda Keshbek hisobga 22 222 ni tushirish uchun Humans aloqa xizmatlari ko‘rsatish Shartlarini qabul qilish orqali Humans kompaniyasi bilan aloqa Xizmatlari ko‘rsatishga oid Shartnoma tuzish kerak.
- 2.3. Humans Xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Shartnoma tuzilgan kunning ertasiga Keshbek hisobga tushiriladi.

3. Yakuniy qoidalar

- 3.1. Mazkur Qoidalar Provayderning Saytida e‘lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda mazkur Qoidalarni o‘zgartirish yoki tegishli ma’lumotni oldindan Saytda joylashtirish orqali Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabardor qilish sanasi tegishli ma’lumotlarning Saytda e‘lon qilingan sanasidir. Saytda e‘lon qilingan paytdan boshlab Qoidalar o‘zgartirilgan va Aksiya bekor qilingan hisoblanadi.
- 3.2. Mijoz tarafidan Qoidalarning 2-bo‘limida sanab o‘tilgan harakatlari jismoniy shaxslarga qarata taklif sanalgan Qoidalarga to‘liq va qat’iy roziligini anglatadi.